

ZAYTUN (OLEA.) O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Abdurahmonov Muhammadmo'ydin Bohodirjon o'g'li

Yulbasov Avazbek Muhtarovich

Sultonov Xumoyun Mahmudjon o'g'li

Nazirjonov Ibrohimjon Anvarjon o'g'li

O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti

Andijon filiali ilmiy xodimlari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zaytun (Olea) o'simligining dorivorlik xususiyatlari, tarkibi, shu bilan birgalikda inson organizmiga ta'sir qilish mexanizmlari va inson organizmida zaytun (Olea) o'simligi tarkibidagi moddalarning dorivorlik xususiyati, xalq tabobatida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Zaytun (Olea), ko'ngil aynishi, revmatizm, asab kasalliklari, moddalar aylanishni yaxshilashi, ich qotishi, diabet, Galen farmakopeyasi, zaytundoshlar.*

Annotation: *This article discusses the medicinal properties and composition of the olive plant (Olea), as well as the mechanisms of its action on the human body, the medicinal properties of substances contained in the olive plant (Olea) in the human body, and their role in folk medicine.*

Keywords: *Olive (Olea), nausea, rheumatism, nervous disorders, improved metabolism, constipation, diabetes, Galen's Pharmacopoeia, olive.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi 2020-yil 10-aprel PQ-4670-sonli qarorida Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlashni yanada rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish, sohaning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalash bo'yicha bir qator topshiriqlar berildi.

Zaytun yog'i inson organizmi uchun nihoyatda foydali bo'lib, qonda holesterinning zararlisini kamaytirish, foydali holesterinni ko'paytirish xususiyatiga ega. Zaytun mevasi tarkibida yuzdan ortiq moddalar, asosan, moy, oqsil, glikozidlar, darmondorilar bor. Yer yuzida yetishtiriladigan zaytun mevasining 90%idan yog' olinadi, bunda uni konservantlar qo'shmasdan turib uzoq muddat saqlash mumkinligi tahsinga sazovor. Nyu-york universiteti doktori Ahrens "O'rta yer dengizi mamlakatlari aholisining dunyoning boshqa mamlakatlari aholisidan yurak, qon-tomir kasalliklari bilan sezilarli kam og'rishining eng asosiy omili ularning zaytun yog'i istemol qilishlaridir". Muntazam zaytun yog'i istemol qiluvchi kishilar yurak, qon-tomir kasalliklariga duchor bo'lmasliklariga asosiy sababchi ekani ilmiy tarafdin isbotlangan. Mevasi yog'ga boy, turli navlariga qarab, ulardan 50%dan 80%gacha yog' olish mumkin. Mevasi oqsil, pektin, qand moddalari va vitaminlarga boy: unda V, S, E, R – aktiv katekhinlar, kaliy,

fosfor, temir tuzlari va boshqa moddalar mavjud.. Bundan tashqari, uglevodlar, fenolkarbon kislotalar, pektin moddalari, triterpen saponinlari borligi aniqlangan. Zaytun yog'i bu daraxt mevasining asosiy mahsuloti bulib, asosan shu maqsadda ekib etishtiriladi. Zaytun yog'i qonning quyushishi va tomirlarning qotib qolishining ham oldini oluvchi mislsiz vositalardan biridir. Zaytun mevasi tarkibidagi A, D, E va K vitaminlari inson suyagini mustahkamlaydi, ichak faoliyatini yaxshilaydi. Zaytun yog'i yuqori arterial qon bosimini normallashtiradi. Zaytun yog'i inson tanasiga to'liq singadi. Odamlar qadim zamonlardan tabiat ne'matlaridan foydalana boshlaganidan buyon dorivor o'tlardan kasalliklarni davolashda foydalanib kelganlar. Bundan 3—4 ming yil ilgari Hindiston, Xitoy, Qad. Misr mamlakatlarida shifobaxsh o'simliklar haqida ma'lumotlar beruvchi asarlar yozilgan. Sharqda, xususan O'rta Osiyo xalq tabobatida dorivor o'simliklardan foydalanib davolash o'zining qad. an'alariga ega. Shifobaxsh o'simliklardan tibbiy maqsadlarda foydalanish borasida Abu Ali Ibn Sinoning „Al-qonun“ asarida 476 ga yaqin o'simlikning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Hozirgi vaqtda dorivor o'simliklarning turi ko'payib, xalq tabobati shifobaxsh o'simliklar bilan boyigan. Aholi sonining oshishi keng assortimentdagi dorivor, oziq-ovqatbop va xushbo'y-zirovor o'simliklar xom ashyosi xilma-xilligini ko'paytirishni hamda ulardan yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqishni taqazo etmoqda. Zaytun (*Olea*) — zaytundoshlar oilasiga mansub o'simlik turkumi. 600 ga yaqin turi ma'lum. Fakat bir turi — Yevropa zaytuni (*O. europaea*, 3. daraxti) xo'jalik ahamiyatiga ega. Yevropa, Osiyo, Amerika, Afrikada ekiladi. yetishtiradigan asosiy mamlakatlar Yaqin Sharq va O'rta dengiz mamlakatlari — Ispaniya 2 milliondan ortiq, Italiya 1,5 mllionga, Gretsiya 500 mingga va Ozarbayjon, Gruziya, Qrim, Turkmaniston, Rossiyaning Krasnodar o'lkasida ham zaytunzorlar bor. Barglari mayda, uchli yoki to'mtoq, to'q yashil, yaltiroq, poyada qaramaqarshi joylashgan. Gullari ikki jinsli, oqish, shingil yoki ro'vaksimon, 3—5 mm, xushbo'y hidli. Mevasi — rezavor, danakli, tuyey qora, to'q binafsha. Mevasi etida 80% gacha, mag'zida 30% gacha moy, oksil, vitamin S va karotin bor. Kurg'oqchilikka chidamli, 13—18° sovuqqa bardosh beradi. 300—400 yil yashaydi. Har tupidan 20—40 kg hosil olinadi. Unumdor, qumoq va kumloq, ohakli tuproqlarda yaxshi o'sadi. Danagidan yetishtirilgan ko'chati 10—12 yil, qalamchasidan 4—5 yilda hosilga kiradi. Zaytun moyi tarkibida oleyk kislotalari yuqori bo'lgan mono to'yinmagan yog'dan zaytun olinadi. Darhaqiqat, zaytun moyi xolesterin yoki xolesterolni-yaxshi- ni tartibga solish orqali yurak-qon tomir tizimining sog'lig'ini ta'minlashda foydalidir. Bundan tashqari Ibn Sino bobomiz o'zining " Tib qonunlari" asarining 1-jildida zaytun (*Olea*) o'simligi haqida shunday deydi " U mashhur o'simlik ya'ni aromatik o'simlik bo'lib, insonning ichki va tashqi organizmiga ham ijobiy ta'sirlari juda ko'pligini, uning danagidan turli efir moylari borligi parhez, ich qotishi, ich qorin dimlanishida organizmni tozalashda juda muhim rol o'ynashini takidlab o'tgan An'anaviy Xitoy tabobatida bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, revmatizm, asab kasalliklari, ich qotishi, diabet va shamollash kasalliklarni davolashda keng qo'llanilgan. Achchiq va issiq bo'lgani

uchun zanjabil tanani isitadi va sovuq ekstremitalarni davolaydi, terini yaxshilaydi. Bu uning mashhurligi ziravor va dorivor o'simlik sifatida keng qo'llanilishini aks ettiradi. Yuqoridagi oyatda berilgan «mubaarakatin zaytuunatin» ifodasi zaytunning «serob, tabarruk, yaxshi, behisob boylik ulashuvchi» ekanligini bildiradi. «Zaytuhaa» so'zida ko'zda tutilgan zaytun moyi olimlar tomonidan, ayniqsa, yurak tomirlari va arterial sog'lik uchun tavsiya etiladigan yog' turlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Uning sog'likka keltiradigan foydalari quyidagicha umumlashtirilishi mumkin: Zaytun mevasi va zaytun moyidagi ayrim yog' kislotalari mono-to'yinmagan hisoblanadi. Mono to'yinmagan yog' kislotalari tarkibida xolesterin bo'lmaydi. Zaytun moyi xavfli o'simtalarning prostata, ko'krak, yo'g'on ichak, tangachasimon hujayralar va qizilo'ngachga oid ba'zi turlariga qarshi himoya ta'siriga ega. D. Pek, Mayami universiteti Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, zaytun (Olea) o'simligi shifobaxshligi jihatidan qadim tarixga borib taqaladi. Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, ko'p miqdorda zaytun moyi va pishirilgan sabzavot iste'mol qiladigan odamlarda revmatik poliartrit, bo'g'imlarning surunkali yallig'lanishi kasalligiga chalinish xavfi kam bo'lar ekan. Shu boisdan bu bebaxo o'simlikni O'zbekiston hududi xususan Surxondaryo viloyati hududida introduksiya ishlarini jadal olib borish va yurtimiz ichki bozoridagi zanjabilga bo'lgan ehtiyojni qondirish ishlarini olib borish yurtimiz da ziravor va dorivor o'simliklar ko'lami kengayishiga ham sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 apreldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4670-sonli Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.
4. Abu Ali Ibn Sino " Tib qonunlari" saylanma 1-jild T-1983
5. R. X. Ayupov va b. " Dorivor o'simliklar va ulardan foydalanish" T-2015. 135-betlar.
6. Zaytun (Olea.) O'simligining biologiyasi va dorivorlik xususiyatlari, xalq tabobatidagi ahamiyati Y.U.Usmonov R.R. Kenjayev Termiz Agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti Science and innovation international scientific journal volume 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337